

**“OYINI AKBARIY” BOBURIYLAR DAVRIGA OID
MUHIM MANBA SIFATIDA**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
2-bosqich magistranti Farida Sultonova
fsultonova3199@gmail.com*

Annotatsiya. Boburiylar davrida yozilgan manbalardan biri Abul Fazl Allomiyning “Oyini Akbariy” hisoblanadi. Asar hukmdor Akbarshoh saroyida yozilgan bo‘lib, mamlakat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy, ilm-fan, etnografik jihatlarini keng qamrovli yoritib bergan. Muallif asarni o‘z kuzatuvlari natijasida yozgan bo‘lib, undan keyin yozilgan asarlarga ham manba sifatida xizmat qilgan. Asarda yozilgan ma’lumotlar nafaqat Hindiston, balki o‘lkamiz Turonga aloqador bo‘lganligi tufayli tariximizni yoritishdagi muhim asarlardan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Abul Fazl Allomiy, Akbar, Jahongir, shayx Muborak, Manzilobodiy, Sipohobodiy, Mulkobodiy.

Annotation. One of the sources written during the Baburid period is Abul Fazl Allami's “Ayini Akbari”. The work was written in the palace of the ruler Akbar Shah, and comprehensively covered the country's political, social, economic, military, cultural, scientific, ethnographic aspects. The author wrote the work as a result of his observations, and served as a source for the works written after him. The information written in the work is considered one of the important works in illuminating the history of not only India, but also our country because it is related to Turan.

Key words: Abul Fazl Allami, Akbar, Jahangir, Sheikh Mubarak, Manzilabadi, Sipahobadi, Mulkobadi.

Hindistonda Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan imperiya uning avlodlari davrida gullab-yashnashda davom etdi. Boburiylar davrida Hindiston ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayoti har tomonlama rivojlandi. Boburning o‘zi ilm-fan, san’at va adabiyotga qiziqqanligi sababli, davlatda ham shoir, yozuvchi, olimlarga alohida e’tibor qaratildi. Bu jarayonlar uning avlodlari davrida ham davom etdi. Xususan Jaloliddin Muhammad Akbar davrida keng ko‘lamli adabiy muhit shakillandi. Saroyda turkiy, forsiy, arabi, sanskrit, hind tillarida asarlar yaratildi, shu davrgacha yozilgan asarlar tarjima qilindi. Bu davrda yaratilgan muhim asarlardan biri Akbarshohning do‘sti Abul Fazl Allomiy tomonidan fors tilida yozilgan “Oyini Akbariy” asaridir.

Abulfazl Allomiy 958 yil 6 muharram/1551 yil 14 yanvar kuni Nagorda (Hindiston, Rajaston shtatidagi tuman) tavvallud topgan. Uning oilasi haqida to‘xtalib o‘tsak, otasi shayx Muborak ibn Hizr (1505-1593) zamonasining eng ilmli kishilaridan biri bo‘lgan. Shayx Muborakning otasi shayx Hizr Nagorda Lo‘diylar sulolasiga

davomchisi Iskandar Lo‘diy xizmatida bo‘lgan. Muborakning otasi uning yoshlik paytida vafot etgan. U ta’limini Nagorda olgan. Keyinchalik onasi ham vafot etgach, Gujaratning Ahmadobod shahriga ko‘chib ketadi. Shayx Muborak Akbarshoh hukmronligi davrida o‘zining bilimdonligi va diniy masalalarda erkin fikrlari bilan ko‘zga tashlangan. U 1001 yil, 17 zulqa’dá/1593 yil 4 sentyabrda Lahorda vafot etgan.¹ Abul Fazl Allomiyning akasi “Fayziy” tahallusi bilan mashhur bo‘lgan Shayx Abul Fayz o‘z davrining eng mashhur shoiri edi. U Akbarshohning doimiy hamrohlaridan biri bo‘lib, unga Agra, Qolinjar shaharlari sadrligi lavozimi berilgan. Shuningdek, u “Shoirlar shahzodasi” unvoniga sazavor bo‘lgan. Uning she’rlari hozirgacha juda yuqori baholanadi.²

Abul Fazl Allomiy o‘n besh yoshigacha zamonasining ilmlarini o‘rganadi. Yuksak salohiyati, chuqur bilimlari sababli unga “Allomiy” unvoni beriladi. Abul Fazl 1574 yilda Akbarshohning Bangolaga yurishi paytida Agra shahrida u bilan tanishadi va Akbarshoh uni saroyga taklif qiladi. U sodiq xizmatlari, zehni o‘tkirligi bilan Akbarshoh ishonchini qozonib, 982/1574 yilda bosh vazir (vakil) lavozimida ishlaydi. 1585 yilda ming otliq qo‘shin qo‘mondoni etib tayinlangan. 1592 yilda uning lavozzimi yanada oshirilib, 2 ming otliq qo‘shin qo‘mondoni bo‘ladi.³ Abul Fazl Akbarshohning yaqin do‘sti va ishonchli kishisi bo‘lgan. Abul Fazlga 1602 yilda Dekkanga yurish chog‘ida Bundela hokimi Bir Singh Devning gijgijlashi oqibatida shahzoda Salim tomonidan suiqasd uyishtiriladi. Uning boshi shahzoda Salimga Allohobodga yuboriladi. Tanasi esa Gvalior yaqinidagi Antri shaharchasida dafn etiladi.⁴

Abul Fazl Allomiy hayoti davomida tarix, adabiyot, tarjimashunoslik bilan shug‘ullangan va bir qancha asarlar yaratgan. Uning tarixga oid yana bir asari “Akbnoma” sanaladi. “Akbnoma” Akbarshohning topshirig‘iga ko‘ra 982/1589 – 1011/1602 yillarda yozilgan. Muallifning o‘limi sabab tugallanmay qolgan asar Avrangzeb davrida Inoyatullloh ibn Muhib Ali tomonidan “Takmila-ye Akbnoma” nomi bilan 1082-1083/1671 yili yakuniga yetkazilgan. Asar muqaddima, xotima va uchta daftardan iborat. Birinchi daftar Tarag‘ay davri, Amir Temurdan Umarshayxgacha, Zahiriddin Muhammad Boburdan Humoyun vafotigacha voqealarni o‘z ichiga oladi. Ikkinci daftarda Akbarshoh hukmronligining birinchi yildan (1556) o‘n yettinchi yiligacha (1572), uchinchi kitobda 17 (1572) yildan 47 (1602) yiligacha yuz bergen siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy voqealar yoritilgan (1573 – 1602). Uchinchi daftarda Akbarshohning shaxsiy fazilatlari, davlat boshqaruvi, soliq tizimi, diniy masalalar haqidagi voqealar yozilgan. Muallifning munshootlari vafotidan keyin singlisining o‘g‘li Abdulsamad tomonidan “Maktuboti Allomiy yoki Inshoyi Abul

¹ H.Blochmann. The Ain I Akbari by Abul Fazl Allami. Vol I, Babtist mission press, Calcutta, 1873, 44 p

² H.M.Elliott, K.C.B. The history of India by its own historians. The Muhammadan period vol VI. London 1875, 2 p

³ Maulawi Abdur Rahim. Akbnoma by Abul Fazl Mubarak vol III. Calcutta, 1884. 463 p

⁴ C.A.Storey. Persian literature. A bio-bibliographical survey section II, London 1939, 542 p

Fazl” to‘plamida e’lon qilgan. Yana bir jiyani Nuriddin Muhammad uning shaxsiy maktublarini to‘plab, “Ruqaot-e Abul Fazl” nomi bilan e’lon qilgan. Shuningdek, “Tarixi Alfiy”, “Ro‘znama” asarlariga forscha muqaddima yozgan va Injilni forschaga tarjima qilgan. “Kalila va Dimna”ni sanskrit tilidan fors tiliga o‘girib, unga “Oyori donish” nomini bergen. “Anvar va Suhayl” masnaviysini yozgan.⁵

“Oyini Akbariy” – bu kitobni ko‘plab olimlar “Akbarnoma”ning to‘rtinchchi kitobi deb hisoblashgan. Buni tasdiqlovchi hech qanday dalil yo‘q. Abul Fazlning o‘zi ham bu asarni to‘rtinchchi kitob sifatida kiritmagan. Ikkala kitobning mavzusi bir-biridan butunlay farq qiladi. “Oyini Akbariy” mustaqil kitob bo‘lib 1006/1597 yilda tugatilgan bo‘lsa, Akbarnoma 1011/1602 yilda muallif vafoti sababli oxiriga yetmagan. “Oyini Akbariy” o‘ziga xos qomusiy asar bo‘lib, Akbar davrining ma’muriy, harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy, diniy tashkilotlarini tasvirlab bergen. Abul Fazl Allomiy asarini davlat hujjatlari, saroy kutubxonasi va o‘zi guvoh bo‘lgan voqealari asosida yaratgan.⁶

Asar bugungi kungacha ko‘p nuxsada saqlanib qoltingan bo‘lib, dunyoning turli amlakatlaridagi kutubxonalarda saqlanadi. Xususan, Britaniya muzeyidagi Rieu katalogida i 248 (1080/1670), 251 a (1166/1817), 252 b (1196/1782); Hindistondagi Bonkipur kutubxonasi 554 (XVIII asr), 555 (XIX asr), 552 (1242/1827); Germaniya/ Myunxen, Aumer katalogi 252 (1148/1735); Lahor, Panjob universiteti kutubxonasida vol ii no 4 (1926) saqlanadi. Asar bir necha tillarga tarjima qilingan. Ingliz tiliga Francis Gladwin “Ayeen Akbery or The institutes of the emperor Akber”, vol I,II,III, Calcutta, 1783-1786; H. Blochmann “The Aini Akbariy by Abul Fazl Allami”, vol I,II,III, Calcutta 1868-1894; H.S.Jarret “A supplementary index of the place names of the Aini Akbariy”, vol II, Calcutta, 1910 tomidan tarjima qilingan. Fors tilida asarga sharh Najaf Alixon tomonidan “Sharhi Aini Akbariy” 1851 yilda yozilgan. 1940 yilda Haydarobudda Muhammad Fido Tolib tomonidan urdu tilida nashrga tayyorlangan.⁷

“Oyini Akbariy” asari 5 ta daftardan iborat. Beshta daftarning har biri o‘ziga xos Oyini (qonunlar) ga bo‘lingan. Ular: 1) Manzilobodiy 2) Sipohobodiy 3) Mulkobodiy 4) Hindistonga bag‘ishlangan qism 5) Akbarshoh shaxsiy fazilatlari, uning nutqlari bayoni, muallif shaxsiy hayotidan iborat.⁸

Birinchi daftar 84 ta qonundan iborat bo‘lib, “Oyini manzilobodiy” deb ataladi. Bu qismda mamlakat xazinasi, qimmatbaho toshlar va ularning qayerdan olinishi va nima maqsadda ishlatalishi, imperator zarbxonasi va zarbxonadigi ishchilar mansabi, oltin, kumush, misdan foydalanish tartibi, ulardan yasaladigan tangalar, dirham, dinor, imperiya harami, muhrlar, saroydagagi har bir xona (farroshxona, oshxona, omborxona kabi), hosil mavsumi (bahorgi va kuzgi hosil yig‘ib olinishi va saqlanishi), mevalar (Turondan keltirilgan mevalar, Hindiston mevalari, quritilgan mevalar, sabzavotlar),

⁵ آفتاب اصخر. تاریخنويسي فارسی در سند و پاکستان از بابر تا اورنگزیب لاہور ۱۹۸۵ ص ۱۷۷

⁶ آفتاب اصخر. تاریخنويسي فارسی در سند و پاکستان از بابر تا اورنگزیب لاہور ۱۹۸۵ ص ۱۷۷

⁷ C.A.Storey. Persian literature. A bio-bibliographical survey section II, London 1939, 551 p

⁸ <https://cheloveknauka.com/abu-l-fazl-allami-i-ego-mesto-v-istorii-persoyazychnoy-literatury-indii-xvi-veka>

atirlar (narxi, xushbo‘y hidli gullar ro‘yxati, eng chiroyli gullar ro‘yxati, atir tayyorlash jarayonlari), kiyimlar (taqinchoqlar: qulqoq, bo‘yin, qo‘l, bilak, oyoq, qorin, burunga taqiladigan; ipak, paxta, jundan tikiladigan kiyimlar), qurilish (qurilish materiallari narxi, quruvchilarga to‘lanadigan maosh, yog‘och turlari) haqida batafsil nomma-nom ma’lumot keltirilgan.

Ikkinchchi daftarda 31 ta qonun mavjud bo‘lib, u “Sipohobodiy” (“Qo‘shinlarning takomillashuvi”) bo‘lib, qo‘shindagi mansablar, qurollar (qachon ishlatalishi, darajalari), jang uslubi, harbiy maqsadlarda foydalaniladigan hayvonlar (fil: imperiya fillarining turlari, ularga beriladigan yem-xashak, fillar bilan shug‘ullanuvchi kishilar, fillarning bezaklari, imperator uchun maxsus boqiladigan fillar; ot: otlarning turlari, egar-jabduqlar, ularga beriladigan yem-xashak, otlarga javobgar shaxslar, minish uchun va ehson uchun ajratiladigan otlar; tuyalar, xachirlar, sigirlar ham xuddi otlardek klassifikatsiyalanagan), qo‘shin (qo‘shindagi mansablar, kiyimlari, maosh), ov jarayonlari, ko‘ngilochar o‘yinlar haqida ma’lumot berilgan. Abul Fazl bu daftarda ayrim sarkardalar, olimlar, iste’dodli xonandalar nomini tilga oladi, daftar so‘ngida esa o‘sha davr shoirlarining hayoti va ijodi haqida so‘z yuritadi. Ular sirasiga Abul Fayz Fayziy, Xoja Husayn Sanoyi Mashxadiy, Mavlon Qosim Kobuliy (taxallusi “Ko‘hiy”), Urfi Sheroziy, Jafarbek Kazviniy, Nazir Nishopuriy va boshqalar kirgan.⁹

Muallif Akbar saroyining zodagoni Fayziyning she’riyat san’ati va ifoda uslubiga yuksak baho beradi. U mashhur forsiyzabon siyosatchi, Akbar saroyining yozuvchi va shoiri bo‘lib, Mashhadiy G‘azzoliy vafotidan keyin (980/1572) Akbar saltanatining eng mashhur shoiri hisoblangan. Fayziy fors tilida ko‘plab she’rlar yozgan, yuksak axloq egasi bo‘lgan. Fayziy she’rlaridan 2 qasida, 9 g‘azal va 13 ruboiy misol tariqasida keltirilgan.¹⁰

Uchinchi daftar “Mulkobodiy” daftarlari deb ataladi. Unda 18 ta qonun mavjud bo‘lib, qishloq xo‘jaligini boshqarish, tovar ayirboshlash tartibini, uy-joylarni obodonlashtirishni yoritib beradi. Bu daftarning bir qismi generallar, qozilar, xazinachilar, amaldorlar va boshqa davlat amaldorlari faoliyatiga bag‘ishlangan. Bu daftarning eng muhim bo‘limi “Oyini ahvoli 12 suba” (“12 viloyatning ahvoli tavsifi”) bo‘lib, keyinchalik “15 suba” deb atalgan. Allomiy aytadiki, bu hududiy bo‘linish Akbar hukmronligining 40 yilida – 1003 yilda / 1596 yilda o‘tkazilgan. Unda quyidagi viloyatlar keltirilgan: Malva, Bengal, Orissa, Bihar, Allohabod, Oudh, Agra, Dondes, Beror, Gujarat, Ajmir, Dehli, Lahor, Mo‘lton, Kobul. Har bir viloyat hokimi va ushbu viloyat tarkibiga kiruvchi tumanlar haqida ham alohida to‘xtalib o‘tilgan.¹¹

To‘rtinchi va beshinchi daftarlar tarjima qilinmaganligi va chop etilmagani uchun

⁹ H.Blochmann. The Ain I Akbari by Abul Fazl Allami. Vol I, Babtist mission press, Calcutta, 1873, 20-23 pp

¹⁰ Н.Н. Пулатов, Литературная ценность второй книги “Аин-и Акбари”. Учёные записки, Худжанд, 2019, 90 с

¹¹ Н.Н. Пулатов. Абу-л Фазл Аллами и его место в истории персоязычной литературы Индии XVI века.

Автореферат. диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Худжанд. 2009, 20 с

ushbu daftarlar haqida ma'lumot yetarli emas. To'rtinchi daftarning o'ziga xos nomi yo'q va Hindistonning geografik va ijtimoiy sharoitlariga xosdir. Ushbu kitobning mazmuni geografiya, iqlimshunoslik, hindlar va musulmonlarning urf-odatlari va an'analari, madaniyati, tillari va boshqa ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu kitobning bir qismida hind musulmon tasavvufi va usullari haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Bu kitob Hindistonga kelgan yoki u yerda yashab qolgan mashhur kishilar haqidagi bob bilan yakunlanadi.

Boshqa daftarlarga qaraganda ancha qisqa bo'lgan beshinchi daftarda avval Akbarshohning so'zлari keltirilib, so'ngra yozuvchi o'z hayoti va oilasi haqida yozgan. Asarning bu qismi Abul Fazl Allomiy hayoti va merosiga oid ko'plab qimmatli materiallarni o'z ichiga olgani va shu bois adib ijodi tarixini o'rganishda ishonchli manba bo'lib xizmat qilishi bilan juda qimmatlidir.¹²

Birinchi, ikkinchi daftar va uchinchi daftarning yarmi kitobning birinchi jildida, kitobning ikkinchi jildi faqat uchinchi daftarning ikkinchi yarmini o'z ichiga oladi, to'rtinchi va beshinchi daftarlar kitobning uchinchi jildini tashkil qiladi.

Umuman olganda, "Oyini Akbariy" XVI asrda boburiylar saroyida yaratilgan qimmatli manbalardan biri hisoblanadi. Asar o'z davrida muallifning shaxsiy kuzatuvlari asosida yozilgani esa, manbaning ishonchli tarixiy asarligini ko'rsatadi. Bu asar orqali boburiylar davri etnografiyasi, etika-estetika qoidalari, flora va fauna olami, ilm-fan, madaniyat va barcha ijtimoiy sohalarga oid ma'lumotlarni o'rganishimiz mumkin. Asar nafaqat Hindistondagi boburiylar tarixi haqida, balki ularning ajdodlari yurti Turon haqida ham muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bundan ko'rinish turibdiki, bu asar vatanimiz tarixii yoritishda alohida ahamiyatga ega.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. H.Blochmann. The Ain I Akbari by Abul Fazl Allami. Vol I, Babtist mission press, Calcutta, 1873.
2. H.M.Elliot, K.C.B. The history of India by its own historians. The Muhammadan period vol VI. London 1875.
3. Maulawi Abdur Rahim. Akbarnoma by Abul Fazl Mubarak vol III. Calcutta, 1884.
4. C.A.Storey. Persian literature. A bio-bibliographical survey section II, London 1939.
5. آفتاب اصخر. تاریخنویسی فارسی در سند و پاکستان از بابر تا اورنگزیب. لاہور ۱۹۸۵.
6. C.A.Storey. Persian literature. A bio-bibliographical survey section II, London 1939, 551 р
7. Н.Н. Пулатов, Литературная ценность второй книги "Аин-и Акбари". Учёные записки, Худжанд, 2019.
8. Н.Н. Пулатов. Абу-л Фазл Аллами и его место в истории персоязычной литературы Индии XVI века. Автореферат. диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Худжанд. 2009.
9. کتابخانه مدرسه فقاہت <https://lib.eshia.ir/23022/2/566>
10. <https://cheloveknauka.com/abu-l-fazl-allami-i-ego-mesto-v-istorii-persoyazychnoy-literatury-indii-xvi-veka>

¹² <https://lib.eshia.ir/23022/2/566>